

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA RA‘NO XIKMATOVNA**

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA ODAMNING ESTETIK BAHOSI  
(RUS VA O‘ZBEK MAQOLLARI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Abdullayeva Ra'no Xikmatovna**

Olamning lisoniy manzarasida odamning estetik bahosi (rus va o'zbek maqollari asosida) ..... 3

**Абдуллаева Раъно Хикматовна**

Эстетическая оценка человека в языковой картине мира (на материале пословиц русского и узбекского языков) ..... 23

**Abdullayeva Rano Khikmatovna**

Aesthetic assessment of a human in the world's language picture (on the material of russian and uzbek proverbs) ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 50

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**ABDULLAYEVA RA‘NO XIKMATOVNA**

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA ODAMNING ESTETIK BAHOSI  
(RUS VA O‘ZBEK MAQOLLARI ASOSIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2914 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Madjidova Ra'no Urishevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Galiyeva Margarita Rafaelovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashining 2023-yil "17" iyul soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6158 raqami bilan ro'yxatga olingan). 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "6" iyul kuni tarqatildi.  
(2023-yil "5" iyul dagi № 21 raqamli reestr bayonnomasi).



*[Handwritten signature in blue ink]*

*[Handwritten signature in blue ink]*

**I.M. Tuxtasinov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G'.Q. Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.S. Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda jahon tilshunosligida paremiologik birliklarni, xususan, xalqning ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi, shuningdek, ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maqollarni tadqiq qilishga nisbatan aksiologik yondashuvni faol qo'llash kuzatilmoqda, bu ayniqsa, ulg'ayib kelayotgan yoshlarning ongiga katta ta'sir ko'rsatuvchi globallashtirish va axborot texnologiyalari taraqqiyoti bilan ham dolzarb sanaladi. Vaholanki, jahon tilshunoslik hamjamiyatida ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni, shu jumladan, shaxsni estetik baholashdagi reprezentatsiya muammolari olamning lisoniy manzarasida doimo dolzarbdir, bu esa, o'z navbatida, til vositalarining atrof-muhit voqeligidagi verballashtirilgan narsa, holat va hodisalarning baho beruvchi mohiyati mavjudligi bilan bog'liq. Aksiologik yondashuv doirasida xalqning hayotiy faoliyati, dunyoqarashi, xulq-atvori va madaniy andozalarini tartibga soluvchi paremiologik birliklar semantikasining muhim komponentini (tarkibiy qismini) o'rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro miqyosda tilshunoslik ilmiy maktablari, markazlarida paremiologiya, qiyosiy paremiologiya, lingvokulturologiya masalalarini nazariy va ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu kabi ilmiy izlanishlarda maqollarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, qardosh, qardosh bo'lmagan tillardagi paremiologik birliklarni qiyosiy-tipologik asosda tahlil qilishga katta e'tibor qaratilgan. Bundan kelib chiqib barcha tillarda aksiologik yondashuvni ifodalashning o'ziga xos usuli, turli sistemali tillarda paremiologik birliklarning o'ziga xos milliy-madaniy qo'llash, ishlatish yo'llarini o'rganish amaliyotini kengaytiradi. Paremiologik birliklarni lingvistik metodlar tatbiqida qiyosiy-chog'ishtirma aspektda tahlil qilish, ularning struktur-semantik xususiyatlarini atroflicha ochib berish, mavzular bo'yicha guruhlash, didaktik jihatdan tadqiq qilish paremiologik birliklarning ta'sir etish ko'lamini oshiradi.

Mamlakatimizda filologiya fanini rivojlantirish, tilning yoshlarning vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashdagi o'rnini oshirish, millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Rus va o'zbek tilshunosliklarida zamonaviy dunyoda insoniyatning hayotiy faoliyati, dunyoqarashi, xulq-atvori va madaniy andozalarini belgilaydigan yo'nalishlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi, bu, aslida, olamning maqolga xos lisoniy manzarasida shakllangan. Qayd qilish joizki, til va madaniyatning o'zaro aloqadorlik xususiyati, avvalo, maqollarni o'zida aks ettiruvchi tilning barqaror ifodalarida ko'proq namoyon bo'lishiga qaramay, ushbu muammo lingvistik adabiyotda nisbatan kam tadqiq qilingan. Ushbu dissertatsiya ishi olamning rus va o'zbek maqollari misolidagi lisoniy manzarasida odamning reprezentativ xususiyatlari, baholashning ijobiy/salbiy jihatlari, rus va o'zbek maqollari misolida uning olamning lisoniy manzarasidagi milliy-madaniy o'ziga xosligining namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan kelib chiqib odamning estetik bahosini to'g'ri tahlil qilish va tavsiflashga bag'ishlangan.

Mazkur dissertasiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8- oktabrdagi PF-5847- son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020- yil 29-apreldagi PF-5987- son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017- yil 20- apreldagi PQ-2909- son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017- yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Lingvistik adabiyotda olamning maqolga xos lisoniy manzarasi va lingvistik voqelikning muhim sohasi H.Д. Арутюнова, А. Вежбицкая, Ю.Д. Апресян, В.И. Карасик, С.В. Воркачев, В.Н. Телия, Е.М. Вольф, Е.С. Кубрякова, И.А. Стернин, О.М. Казакова, Т.А. Фесенко, N.M. Ulukov, G. Abdurazzakova, D. Xudayberganova, R.U. Madjidova<sup>1</sup> va boshqalar asarlarida o‘z aksini topgan.

---

<sup>1</sup> Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М., 1988. – 339 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 411 с.; Апресян Ю. Д. Образ человека по данным языка: Попытка системного описания // Вопросы языкознания. – 1995. – № 1. – С. 37-67; Карасик В.И. Аксиогенная ситуация как единица ценностной картины мира // Политическая лингвистика. – 2014. – № 1. – С. 65-75; Воркачев С.Г. Культурный концепт и значение // Труды Кубанского государственного технологического университета. Сер. Гуманитарные науки. – 2003. – № 2. – С. 268-276; Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии // Филология и культура. Матер. 2-й междунар. конф. – Тамбов, 1999. – С. 14-15; Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – 280 с.; Кубрякова Е.С. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека // Вестник Чувашского государственного педагогического университета имени И.Я. Яковлева. – 2003. – № 4 (38). – С. 2-12; Стернин И.А., Попова З.Д. Когнитивная лингвистика. – М.: АСТ – Восток – Запад, 2007. – 314 с.; Казакова О.М. Особенности национального менталитета в русских и английских пословицах // Евразийство: теоретический потенциал и практические приложения: материалы Четвертой Междунар. науч.–практ. конф. / под ред. В.Я. Баркалова, А.В. Иванова. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2009. – С. 237-244; Фесенко Т.А. Этноментальный мир человека: опыт концептуального моделирования: Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – JL, 1999. – 51 с.; Улуков Н.М., Абдураззакова Г. Общечеловеческие ценности, связанные с концептом «хлеб», и их языковое выражение в узбекском языке // Современные инновации. – 2016. – № 8 (10). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/obschechelovecheskie-tsennosti-svyazannye-s-kontseptom-bleb-i-ih-yazykovoe-vyrazhenie-v-uzbekskom-yazyke>; Худайберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Маджидова Р.У. Аксиологическое исследование антропоцентрических пословиц (на материале узбекского и русского языков): Докт. дисс. (DSc) по филол. наукам. – Фергана, 2020. – 266 с.

Lingvokulturologik konseptlar (tushunchalar) va stereotiplarni (andozalarni) o'rganish masalalari Д.О. Добровольский, В.Т. Малыгин, Л.Б. Коканина; С.А. Моисеева, И.А. Волошкина<sup>2</sup> va boshqalarning ishlarida, o'zbek tilida – U.K. Yusupov, Sh.S. Safarov, D.U. Ashurova, M.R. Galiyeva, N.M. Djusupov, D.B. Agzamova, D.U. Dospanova, A.A. Dusabayeva, Z.I. Salisheva, A.A. Tojiboyeva<sup>3</sup> va boshqalarning ishlarida aks ettirilgan. O'zbek maqollarining milliy-madaniy o'zaro bog'liqligini o'rganish bilan N.M. Ulukov, G. Abdurazzoqova, Sh. Shomaqsudov, Sh. Shoraxmedov, G.I. Ergasheva<sup>4</sup> va boshqa ko'plab olimlar shug'ullanishgan.

А.К. Дремов, О. Duchacek, Т.В. Писанова<sup>5</sup> tadqiqotlarida odamning estetik bahosi o'rganib chiqilgan. Estetik baholash tushunchasi, mohiyati va mazmuni Н. Гартман, А.Ф. Лазурский, С.Л. Франк, Д.Н. Шмелев<sup>6</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida ham qisman bo'lsada o'rganilgan.

Xususan, olamning maqolga xos lisoniy manzarasi bilan bog'liq asosiy masalalar chuqur o'rganilgan ishlar ko'p bo'lishiga qaramay, lingvistik adabiyotlarda olamning rus va o'zbek maqollari doirasidagi lisoniy manzarasida odamning estetik jihatdan baholanishi tadqiq qilinishiga bag'ishlangan maxsus

---

<sup>2</sup> Добровольский Д.О., Малыгин В.Т., Коканина Л.Б. Сопоставительная фразеология (на материале германских языков) / – Владимир: ВГПИ, 1990. – 80 с.; Моисеева С.А., Волошкина И.А. Фразеологическая картина мира – воплощение этнического и когнитивного: на материале французского языка // Языковая картина мира в лингвистике и лингводидактике: материалы I междунар. науч. конф. – Тамбов: ТГУ им. Г.Р. Державина, 2009. – С. 73-77.

<sup>3</sup> Юсупов У.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илм.-амал. конф. матер. – Тошкент, 2011. – С. 28-32; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор нашриёти, 2006. – 92 б.; Ашурова Д.У. Когнитивная лингвистика: теоретические и методологические проблемы // Хорижий филология: тил, адабиёт, таълим. – Самарқанд, 2012. – № 2 (43). – С. 7-11; Галиева М.Р. Отражение мифолого–религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. докт. дисс. (DSc) по филол. наукам. – Фергана, 2019. – 78 с.; Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: современное состояние и актуальные вопросы исследования // Вопросы когнитивной лингвистики. – 2011. – № 3. – С. 65-77; Агзамова Д.Б. Построение номинативного поля концепта «память» в английском и узбекском языках путем проведения ассоциативного эксперимента // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. – 2011. – № 2. – С. 191-198; Доспанова Д.У. Концепт «семья» в картине мира узбекского и каракалпакского языков // Молодой ученый. – 2015. – № 7 (87). – С. 940-942; Дусабаева А.А. Лингвокогнитивная и интертекстуальная сущность аллюзии в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 2009. – 24 с.; Салиева З.И. Национально-культурная специфика в представлении женского стереотипа в предложениях английского и узбекского языков // Систем–структур тилшунослик муаммолари (ф.ф.д., проф. Н.К. Турниёзов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган): Тез. докл. Респуб. науч. конф. – Самарканд, 2010. – С. 73-74; Таджибаева А.А. Социокультурные и когнитивные аспекты лингвистического исследования эвфемизмов в английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 2006. – 25 с.

<sup>4</sup> Улуков Н.М., Абдураззакова Г. Указ. соч.; Шомақсудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси, 1990. – 528 с.; Эргашева Г.И. Ўзбек ва инглиз тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиссий–типологик тадқиқи: Филол. фанл. номз. ...дисс. – Тошкент, 2011. – 165 с.

<sup>5</sup> Дремов А.К. Основы эстетического воспитания. – М.: Высш. школа, 1975. – 327 с.; Duchacek O. L'étude diachronique des champs conceptuels: le champ de la beauté en français du XII–XX siècles // Folia linguistica historica. – 1981. – Vol. 2, № 2. – 237 p.; Писанова Т.В. Национально–культурные аспекты оценочной семантики // Эстетические и этические оценки. – М.: Издательство ИКАР, 1997. – 123 с.

<sup>6</sup> Гартман Н. Эстетика. – Киев: ГТка–Центр, 2004. – 694 с.; Лазурский А.Ф., Франк С.Л. Программа исследования личности в ее отношениях к среде // Лазурский А.Ф. Избранные труды по общей психологии. К учению о психической активности. Программа исследования личности и другие работы. – СПб.: Алетей, 2001. – С. 124-160; Шмелев А.Д. Виды эстетической оценки в представлении русского языка // Логический анализ языка. Языки эстетики: Концептуальные поля прекрасного и безобразного. – М., 2004. – С. 303-311.

ishlar hamon mavjud emas. Shu bois, ushbu amalga oshirilgan ish aksiologik yo‘nalishni ilgari suradi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” mavzusi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** olamning rus va o‘zbek maqollari doirasidagi lisoniy manzarasida odamning estetik baholash representatsiyasi tizimi va milliy-madaniy o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish va tavsiflashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy tilshunoslikda olamning maqolga doir lisoniy manzarasini o‘rganish masalalarini aksiologik tadqiqot obyekti sifatida asoslash;

olamning maqolga doir lisoniy manzarasida shaxsni estetik baholashni o‘rganishning nazariy asoslarini aniqlash;

olamning maqolga doir lisoniy manzarasida odamni ijobiy va salbiy jihatdan estetik baholash representatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

olamning rus va o‘zbek maqollariga doir lisoniy manzarasida odamni estetik baholashni aks ettiruvchi lingvokulturologik konsept va andozalarning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib odamni estetik bahosini o‘z ichiga olgan rus va o‘zbek tillaridagi maqollar xizmat qilgan.

**Tadqiqotning predmeti** olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamning estetik bahosinining representatsiya xususiyatlari va milliy-madaniy o‘zaro bog‘liqligi sanaladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot maqsadiga erishish va ilgari surilgan vazifalarni amalga oshirish uchun lingvistik tavsiflash metodi, aksiologik tahlil usuli, lingvokulturologik tahlil usuli, qiyosiy metod, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

go‘zallikni (tashqi ko‘rinishni) baholashning boshqa turlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda rus va o‘zbek tillaridagi maqollar materialida asosida odamning estetik bahosi har tomonlama: xarakter xususiyatlari (axloqiy-estetik baho); inson xatti-harakatlari (etik-estetik); aql-qalb (intellektual-estetik); fiziologik xususiyatlari (valeologik-estetik); faoliyatni baholash (pragmatik-estetik) kabilar ilk bor qiyosiy o‘rganilib aniqlangan;

olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamni quyidagi belgilar asosida ijobiy va salbiy jihatdan estetik baholash representatsiyasidagi o‘xshash va farqli jihatlar: tashqi ko‘rinish – xatti-harakat, muomala – holat, vaziyat – xulosa chiqarish, go‘zallikning mavjudligi – xarakter jihati, inson nomining go‘zallik estetik me‘yorlari bilan muvofiqligi dalillangan;

odamning ichki xususiyatlari (harakatlar usuli, muomala fe‘l-atvori, atrof-dagilarga munosabati, xarakter jihati) vizual axloqni baholashga ko‘chib o‘tishi va barqaror maqollar shaklida mujassamlashishi, unda estetik baholash

nafaqat go‘zallikni namoyon etishga, balki muomala, xatti-harakat, fazilat, holatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni aniqlashga yo‘naltirilganligi isbotlangan;

konseptning antropotsentrik, shaxsiy-individual, qadriy-baholovchi va hissiy-baholovchi semantik xususiyatlari hamda qiyosiy tillardagi olamning rus va o‘zbek maqollariga xos manzarasida odamni estetik bahosi aks ettirilgan universal va milliy-madaniy andozalar asosidagi “Go‘zallik” konseptining mikromaydonlari ochib berilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari:**

tadqiqot natijalari asosida 5111300 – Ona tili va adabiyoti (o‘zga tilli guruhlarda rus tili va adabiyoti) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat talabalari uchun “Rus va o‘zbek tillarida odamning estetik bahosi” maxsus kursi ishlab chiqilgan;

olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamni estetik baholashning reprezentatsiya xususiyatlari ochib berilgan;

odamni ijobiy va salbiy jihatdan estetik bahosini ifodalash vositalari aniqlangan;

olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamni estetik bahosini aks ettiruvchi lingvokulturologik konsept va andozalarning o‘xshash va farqli jihatlari isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** Ilmiy yondashuvlar, tahlil metodlari, tan olingan nazariyalar va lingvistik konsepsiyalarning qo‘llanilganligi, tahlilga tortilgan katta hajmdagi faktik material va amalga oshirilgan tadqiqot natijalarining dissertatsion ishdagi nazariy holatlarga muvofiqligi, tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamning estetik bahosi reprezentatsiyasi tizimi belgilandi, olamning maqolga xos lisoniy manzarasida shaxsni estetik baholashni aks ettirishning lingvokulturologik jihatlari o‘rganilgan, olamning rus va o‘zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamning estetik bahosini aks ettiruvchi lingvokulturologik konsept va andozalari aniqlangan.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqotning olingan natija va xulosalarini oliy ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonidagi ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlari, umumiy, rus, o‘zbek va qiyosiy tilshunoslik, leksikologiya, uslubiyat va matnni talqin qilish, lingvokulturologiya bo‘yicha maxsus kurslarni ishlab chiqish va olib borishda, dissertatsiya ishlari, monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalar yozishda, maxsus lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi** olamning maqolga xos lisoniy manzarasida odamning estetik baholashni tadqiq qilishda olingan ilmiy natijalar va amaliy xulosalar asosida:

baholashning boshqa turlari bilan go‘zallikning (tashqi ko‘rinishning) o‘zaro aloqadorligi, shaxsni estetik baholashning milliy-madaniy xususiyatlari, shaxs tushunchasidagi farqlar, shuningdek, chog‘ishtirilayotgan tillarda shaxsning go‘zalligini ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalarining leksik-semantik xususiyatlari borasida rus va o‘zbek tillaridagi maqollar materiali asosida shaxsni estetik

baholashni har tomonlama tahlil qilish va tavsiflash bo'yicha xulosalar "FZ-2019062034 Xorijiy tillarda so'zlashuvchilar uchun o'zbek tilini intensiv o'rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish (xorijiy tillarda so'zlashuvchilarga o'zbek tilini intensiv o'rgatish bo'yicha multimediyah mahsulotlarini yaratish)" amaliy loyihasida ruscha-o'zbekcha elektron lug'at tuzish, milliy realiya va qadriyatlarni umumlashtirish, qiyosiy matnlar to'plashda foydalanildi (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2022-yil 5-dekabrda 21/3051-sonli ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari lingvokulturologiya, tipologiya, qiyosiy tilshunoslik kabi fanlarni o'qitishda, shuningdek, ushbu amaliy loyiha bo'yicha elektron manbalar, bosma darsliklar, nazariy va amaliy materiallarni tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

rus va o'zbek tillarida estetik go'zallikni ifodalashning leksik-semantik, struktur-funksional xususiyatlariga doir dissertatsiya materiallari va xulosalari, ularni o'zbek tilida qo'llash bo'yicha tavsiyalar, olamning lisoniy manzarasida rus va o'zbek xalqlari mentaliteti va milliy-madaniy xususiyatlari reprezentatsiyasi borasidagi ma'lumotlar "A-OT-2021-419 Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron platformasini yaratish (Pre-school PDP)" innovatsion loyihasida foydalanildi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ma'lumotnomasi). Natijada o'qituvchilar e'tiboriga olamning lisoniy manzarasidagi maqol va matallarning estetik ahamiyati, ularning ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash uchun xizmat qilgan;

dissertatsiyada taqdim qilingan xulosalardan "P3-2020042022 Turkiy tillar lingvodidaktik elektron platformasini yaratish (Turkiy tillar uchun lingvodidaktik elektron platformani yaratish)" amaliy tadqiqot loyihasida foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2022-yil 1-dekabrda 01-3295-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida umumiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kontrastli lingvistika yo'nalishlari bo'yicha o'quv adabiyotlari va lug'atlarni tuzishda ikki tilda odam go'zalligini ifodalovchi so'z va so'z birikmalarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, o'zbek tilida odam go'zalligini ifoda etish uchun foydalaniladigan so'z va so'z birikmalarni tanlash elektron platforma yaratish uchun manba bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyada keltirilgan asosiy qoidalar, xulosa va tavsiyalar O'zDJTU professor-o'qituvchilari tarkibi va doktorantlarining yillik ilmiy-nazariy anjumanlarida, 7 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 24 ta ilmiy maqola chop etilgan bo'lib, shu jumladan, doktorlik tadqiqotlarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, ulardan 2 ta respublika va 3 ta maqola xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 131 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va talab doirasi asoslandi, tadqiqotning respublika fan va texnologiya taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ilgari surildi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilandi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, metodlari aniqlandi. Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish, ularni aprotatsiyadan o'tkazish borasida ma'lumot berildi.

Dissertatsiyaning **“Olamning maqolga xos lisoniy manzarasi tilshunoslikda aksiologik tadqiqotning obyekti sifatida”** nomli birinchi bobida olamning maqolga xos lisoniy manzarasi tushunchasi o'rganiladi, olamning maqolga xos lisoniy manzarasini o'rganishga nisbatan aksiologik yondashuv ochib beriladi, olamning maqolga doir lisoniy manzarasida odamni estetik bahosini tadqiq qilish muammolari belgilanadi.

Olamning maqolga xos lisoniy manzarasini baholash madaniy sohadagi aksiologik tarkibiy qismlarni aks ettirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Aynan maqollarda predmet, hodisa va voqelik realiyalarining muhim ahamiyati aks etadi. Atrofdagi voqelikni aksiologik idrok etish ahamiyatga molik talqinga ega bo'lib, andoza tavsifini egallab hamda tilning turli darajalarida (leksik, frazeologik, maqolga doir) aks etgan holda individning (shaxsning) shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi voqea-hodisalariga o'tadi. Shu bilan birga, baholanganlik nafaqat baholovchi munosabatning (yaxshi/normal/yomon), balki hissiy (yoqimli/yoqimsiz), oqilona (foydali/zararli), samarali (ajoyib/nojo'ya) kabilarning mavjudligi bilan ham tavsiflanadi.

Olamning maqolga doir lisoniy manzarasini o'rganishga nisbatan aksiologik yondashuv quyidagi asosiy qoidalar bilan tavsiflanadi:

atrofdagi dunyoni ahamiyatga moliklik jihatidan idrok etish har bir shaxsda mavjud va u o'z munosabatini aniq bir milliy-madaniy umumiylikdagi mavjud qadriyatlar nuqtai nazaridan aks ettirishga qaratilgan;

muayyan milliy-madaniy umumiylik qadriyatlari uzoq tarixiy davr davomida shakllanadi va etnik guruhning taraqqiyot yo'llarini belgilaydi;

ahamiyatga molik hukm lingvistik ko'rinishda shakllanadi va yaxshi/yomon nuqtai nazaridan andoza va modellarni aks ettiradi hamda tilning barcha darajalarida mustahkamlanadi;

aksiologik idrok inson va jamiyatning ijtimoiy, shaxsiy hayotidagi voqea-hodisalariga ko'chiriladi va olamning qadriyat talqinida o'z aksini topadi.

Baholash modalligi nuqtai nazaridan baholash strukturasi subyekt, obyekt va baholovchi predikatga ega bo'lib, ular nutqda nafaqat yaxshi-yomon, aqlli-ahmoq, yoqtirish-yoqtirmaslik, hurmat-nafrat kabilar vositasida taqdim qilinishi mumkin, balki umuman semantika bilan ham ifodalanishi mumkin<sup>7</sup>. Bunday holda,

---

<sup>7</sup> Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Эдиториал УРСС, 2002. – С. 8.

baholashning obykti bo'lib hodisa, predmet, shaxs, voqea yoki vaziyat hisoblanadi, xususan, subyekt-shaxs yoki jamiyatning bahosi esa ularga tatbiq etiladi. Aslida, ijtimoiy munosabatlarning butun spektri obyektiv qadriyatlar sifatida ishtirok etishi mumkin, ularga nisbatan yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, haqiqat va yolg'on kabilar nuqtai nazaridan baho beriladi.

Estetik baholash ma'lum subyektiv o'zaro bir-biriga bog'liq estetik tamoyillar va estetik mohiyatni chuqur anglashga asoslangan baholash sifatida belgilanadi<sup>8</sup>. Ushbu nuqtai nazardan estetik his-tuyg'ularning takrorlanishi asosida estetik tamoyil va estetik qadriyatlar bilan muloqotning barqaror talab-ehtiyojlari shakllanadi.

Jamiyatdagi estetik tasavvurlar tizimi baholash obykti, uning baholash subykti dunyo manzarasidagi o'rni va butun lingvokulturologik umumiylik bilan bog'liq bo'ladi. Estetik baholash qat'iy me'yoriylikning mavjud emasligi bilan (har bir shaxs / umum / jamiyatning o'ziga xos go'zallik andozasi mavjud), eng kam asoslanganlik va o'ta subyektiv jihat bilan, baholash subyktivning obyektga nisbatan munosabatining o'ziga xosligi bilan (bir kishi uchun go'zallik ma'lum mezonlar, masalan, jismoniy jozibadorlik bilan belgilansa, boshqasi uchun – ma'naviy go'zallik bilan belgilanishi), ona tilida so'zlashuvchilar – u yoki bu milliy-madaniy umumiylik vakillari tomonidan baholash obyktivni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi.

Milliy-madaniy, tarixiy o'zaro bog'liqlikka ega bo'lgan olamning maqolga xos manzarasida go'zallik mazmuni qadim zamonlardan beri shakllangan bo'lib, unda axloqiy poklik shaxsni jismoniy, ma'naviy, estetik, intellektual jihatdan "go'zal" qiladigan xususiyat sifatida talqin qilingan. Bundan tashqari, estetik baholashni ifodalash jarayoni ushbu milliy-madaniy jamiyatda shakllangan qadriyatlarga muvofiq ideal borasidagi ma'lum tasavvurga qaratilganligini inobatga olish zarur, bu, o'z navbatida, vizual tarkibiy qismlarni ichki ma'naviy mohiyatga ko'chirishga yordam beradi. Go'zallik insoniy o'zaro munosabatlarning o'ziga xos boshqaruvchi kuchi sifatida ishtirok etadi va shaxs intuitiv ravishda yaxshilikka qarab intiladi va yaxshilikni ham vizual ravishda (yuzida, ko'zida – tabassum va boshqalar), ham xatti-harakatlari va xarakteri orqali ko'rishga harakat qiladi.

Estetik munosabat va baholash doirasida shaxsning go'zalligi/xunukligi haqidagi andazali tasavvurlar va go'zallikning milliy-madaniy kodlari mavjud. Shunga muvofiq, odamning estetik bahosi go'zallik, dunyoqarash, xarakter va mentalitet, qadriyatlar, an'analar, lingvistik shakldagi ma'lum bir milliy-madaniy umumiylik andozalari borasidagi estetik tasavvurlar darajasida aks etadi, bu, o'z navbatida, olamning maqolga xos lisoniy manzarasida namoyon bo'ladi, degan fikrni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Olamning rus va o'zbek maqollariga xos manzarasida odamning estetik bahosi reprezentatsiyasi**" deb nomlanadi. Unda rus va o'zbek maqollarida shaxsni estetik baholashni ifodalash xususiyatlari tahlil

---

<sup>8</sup> Дремов А.К. Основы эстетического воспитания. – М.: Высш. школа, 1975. – С. 69-84.

qilinadi va tavsiflanadi, xususan, odamni ijobiy va salbiy baholashning reprezentativ vositalari o'rganiladi.

Olamning maqolga xos manzarasida odamni ijobiy-salbiy jihatdan estetik bahosini reprezentatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun biz lingvistik birliklarning ikkita asosiy guruhini aniqladik. Birinchi guruhga shaxsning tashqi ko'rinishini uning sof vizual xususiyatlari, xususan, kiyim-kechagi, holatiga qarab estetik baholash, shuningdek, moddiy predmetlar va jonli obyektlar bilan bog'liq tasavvurga asoslangan holda shaxsni baholash kiradi. Masalan, rus tilida nigoh, qadam tashlash, sochlar tasviri bilan bog'liq maqollar ko'p uchraydi: *Коса – девичья краса (Soch – qiz bola uchun husn). Красен человек статью (Inson qaddi-qomati bilan go'zal). И личиком бела, и с очей мила (Husni ham dilbar, nigohi ham yoqimli)*. O'zbek tilida shunday maqollar borki, ularda belgilar sifatida kiyim-kechak va tashqi ko'rinish ilgari suriladi: *Soch ham bir husn. – И волосы придают красоте. Kishining chiroyi yuzida. – Красота человека в его лице.*

Ikkinchi guruhga estetik va parametrik me'yorlar, estetik me'yorga egalik / uning mavjud emasligi bilan bog'liq tasavvurlar, tashqi ko'rinishni subyektiv baholash, milliy-madaniy tasavvur va andozalar, baholashning boshqa turlari bilan qarshilantirish nuqtai nazari bilan bog'liq qayta taqdim qilingan estetik bahoga ega maqollar kiradi. Maqollarning ushbu guruhi beshta kichik guruhga bo'linadi. Birinchi kichik guruh maqollarning lingvistik birliklari ona tilida so'zlashuvchilar ongida mavjud bo'lgan estetik me'yorlar nuqtai nazaridan baholashni ifodalash obyekti sifatida odamning tashqi ko'rinishini tavsiflovchi maqollarni qamrab oladi. Bunday maqollarda ayol/xotin munosabatiga nisbatan qadriyatlar tizimi orqali ifodalanadigan feminizm (ayollik) tobora yaqqol kuzatiladi, masalan, ayol va xotin rus tilida: *Жена красовита – безумному радость. Красота – в глазах влюбленного*; o'zbek tilida: *Yaxshi xotin – uning guli – Хорошая жена – цветок дома. Qiz bola – gul-lola. – Девушка - тюльпан.*

Ikkinchi kichik guruh tashqi ko'rinishni baholashni tavsiflovchi maqollarni o'z ichiga oladi. Estetik baholashning quyidagi modellari ajratib ko'rsatiladi:

**go'zallik** erkak / ayol nuqtai nazaridan **jozibadorlik sifatida**: rus tilida: *Свашенька, попляши: у тебя ножки хороши*; o'zbek tilida: *Qari bo'lsa ham qiz yaxshi, achigan bo'lsa ham – qimiz. Девушка хороша хоть и старая, кимыз хорош хоть и прокис*;

**go'zallik – bu amalga oshiriladigan sa'y-harakatlarning natijasidir**: rus tilida: *На красавице всякая тряпка – шелк*; o'zbek tilida: *Daraxt – yer ziynati, kiyim – er ziynati. – Дерево и одежда – украшение земли*;

**go'zallik odamning ichki holati, jozibadorligi sifatida**: rus tilida: *Молодец, хоть во дворец*; o'zbek tilida: *Yaxshi qiz – yoqadagi qunduz, yaxshi yigit – ko'kdagi yulduz. – Хорошая девушка – бобер на воротнике, хороший парень – звезда на небе.*

Uchinchi kichik guruhda subyektning odam tashqi qiyofasidan zavqlanish kechinmalarini qamrab oluvchi ijobiy bahoga ega maqollar taqdim qilinadi: rus tilida: *Сердце веселится – и лицо цветет*; o'zbek tilida: *Gul o'ssa – yerning*

*ko'rki, qiz o'ssa – elning ko'rki. – Цветок растет – красота земли, девочка растет – красота народа.*

To'rtinchi kichik guruhda me'yor, tartib yoki ularning o'zgarishi (shakl, obrazning yaxlitligi, inson tanasi, normal shaxs qiyofasini yaxshilash) bilan bog'liq tasavvurlar taqdim etiladi: rus tilida: *В нем есть молодца клок. Красней красного солнышка, ясней ясного месяца;* o'zbek tilida: *Rang ko'r – hol so'r. – Посмотри на цвет лица, потом справляйся о здоровье.*

Beshinchi kichik guruh belgi, shaxs, jarayon nomlari nuqtai nazaridan parametrik me'yor va undan tashqi ko'rinishning og'ishi (hajm, shakl, tana hajmi, qadami) tasvirlangan maqollarni qamrab oladi. Bularga maqollarning quyidagi kichik guruhlari kiradi: a) go'zallik mushohadasidan yuzaga kelgan quvonch, zavq ifodasi: rus tilida: *Идет – словно павушка плывет. Красная девка в хороводе, что маков цвет в огороде;* o'zbek tilida: *Sumbul taqimda, yigit ko'zi unda – Когда девица наряжена, юноша не может свести глаз с нее;* b) insonning boshqalar ustidan estetik ustunligiga nisbatan ijobiy munosabatining ifodasi: rus tilida: *Каждому своя милая – самая красивая;* o'zbek tilida: *Erkak kishi qirqqa kirs qirchilaydi. – Сороколетний возраст как период расцвета для мужчины;* v) vizual tarkibiy qismlar (kiyim-kechak va tashqi ko'rinishning vizual birikuvi) nuqtai nazaridan ijobiy munosabatni ifodalash: rus tilida: *Кому что идет, то и красиво;* o'zbek tilida: *Vozorning ko'rki – baqqol, yigitning ko'rki – soqol. – Украшение базара – бакалейщик, украшение джигита – борода;* g) boshqa odamning yaxshi kiyinish, yaxshi ko'rinish istagiga ijobiy munosabatni ifodalash: rus tilida: *Красивый вид человека не портит;* o'zbek tilida: *Onangni otangga bepardoz ko'rsatma. He pokazывай мать otцу без макияжа.*

Shaxsni ijobiy jihatdan estetik baholashni qamrab oluvchi maqollar tahlili shuni ko'rsatadiki, go'zallikni (tashqi ko'rinishni) qarshilantirish baholashning boshqa turlari bilan kesishadi: rus tilida axloqiy tavsiflar orasida mehribonlik / baxt tushunchasi tashqi go'zallikka zidlantirish sifatida kuzatiladi, xatti-harakatlar yaxshilik / yomonlik nuqtai nazaridan baholanadi, inson faoliyati turlari go'zallikning aksi sifatida erkak va ayolga (uy xo'jaligini boshqarish, buyuk ishlar) bo'linadi; o'zbek tilida go'zallik – aql / sevgi / ma'naviy komponentning nisbati tez-tez uchrab turadi, xatti-harakatlar, go'zallik – mahoratni qarshilantirish yoki erkak / ayol uchun umume'tirof etilgan mashg'ulot xushaxloq sifatida baholanadi, uning asosida mehnatga nisbatan qadriyat munosabati shakllanadi.

Shaxsni negativ (salbiy) estetik baholash olamning lisoniy manzarasida maqollarning ikki guruhi orqali taqdim qilinadi. Birinchi guruhda biz tomondan salbiy estetik baholashning asosiy tavsiflari belgilanadi, bu quyidagilarni ifodalaydi:

***umuman tashqi ko'rinishning xunukligi:*** rus tilida: *Чем чуднее, тем моднее;* o'zbek tilida: *Gap husnda emas, yo'sinda. – Дело не в красоте, а в стиле (манерности, изюминке);*

***o'tib borayotgan yoshlik***– go'zallikni yo'qotishdir: *Вянут леса, вянет и краса. Красота товар не лежалый. Красив ситец, да линюч.* O'zbek tilida go'zallik va yoshlik nisbati vaqtinchalik xususiyat (qisqa umr ko'rish) bilan bog'liq: *Yoshlik – g'animat. – Молодость недолговечна;*

**xatti-harakatning noaniqlik holati sifatida**, masalan, rus tilida, odamdan nima kutish mumkinligi noma'lum bo'lsa, uning tashqi tomoni yoshi kattaroq odamga xos bo'lmagan axmoqona harakatlar bilan tavsiflanadi: *Седина в бороде, а бес в ребро*. O'zbek tilida xulq-atvor ozodalikning mavjud emasligi, o'ziga va boshqalarga nisbatan hurmatsizlik bilan bog'liq: *O'ziga boqmagani o'zgaga yoqmas*. – *Кто не следит за собой, тот не любит других*;

**inson go'zalligiga umumiy baho**: hammaga ham xos bo'lmagan tavsif beriladi: *Красота не от моды, а от природы*; o'zbek tilida: *Afting qiyshiq bo'lsa, oynadan o'pkalata*. – *Не обижайся на зеркало, если твоя физиономия крива*.

Olamning rus maqollariga doir manzarasida salbiy estetik baholash reprezentatsiyasi vizual jozibadorlikni, alohida tashqi tavsiflarni (yuz, tana qismlari), umuman vizual obrazni estetik idrok etish orqali amalga oshiriladi: rus tilida: *Ни глаза во лбу, ни зуба во рту. Нос крючком, борода клочком. Один глаз на мельницу, другой на кузницу*. O'zbek tilida alohida estetik baholashga doir maqollarning miqdori unchalik ko'p emasligini kuzatish mumkin, bu, fikrimizcha, ma'naviy go'zallik, aqliy qobiliyatlar ustunligi bilan bog'liq, xususan, go'zal tashqi ko'rinishga ega bo'lish muhim belgi hisoblanmaydi, maqolning ko'chma ma'nosi asosiy e'tiborni go'zallikka emas, balki insonning foydaliligi / kerakliligiga qaratadi; xulq-atvor xususiyatlari nasldan naslga o'tish va shaxsning aqliy qobiliyatlari bilan bog'liq: *Qori bo'lmasa, qish xunuk, yori bo'lmasa – qiz xunuk*. – *Если нет снега, зима некрасива, если нет снега – некрасива девушка. Кал тегатан dedi, ko'r noz qildi*. – *Плешивая согласна на замужество, а слепой заупрямился*.

Olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, rus tilida ijobiy estetik bahoga ega 39 ta maqoldan 9 tasida vizual go'zallikni axloqiy fazilatlar, xatti-harakat, inson faoliyatining xususiyatlari, uning aqliy qobiliyatlari bilan taqqoslash orqali sof estetik bahoga ega 30 ta maqolga nisbatan qarshilantirish ifodalangan, o'zbek tilida esa 37 ta maqoldan 13 ta maqoldagina estetik baho kuzatiladi. Maqollarda tashqi ko'rinishga, kiyim-kechaklarga, shaxsning ichki holatiga nisbatan ijobiy estetik baho ustunlik qiladi, shunga qaramay, o'zbek tilidagi maqollar umumiy miqdorining taxminan teng qismi odamning boshqa xususiyatlariga nisbatan tashqi go'zallikning qarshilantirilishi bilan bog'liq maqollar sanalib, ular ancha keng tarqalgan. Bizning fikrimizcha, ushbu tendensiyani ikki omil bilan izohlash mumkin: a) rus tilida shaxsning vizual xususiyatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, uning nominatsiyasiga ko'proq e'tibor qaratiladi; b) o'zbek tilida estetika nuqtai nazaridan shaxsning ichki fazilatlarini muhim hisoblanadi.

Rus tilida estetik jihatdan salbiy baholangan 42 ta maqoldan 18 tasida vizual go'zallikni axloqiy fazilatlar, xatti-harakat, inson faoliyatining xususiyatlari, uning aqliy qobiliyatlari bilan taqqoslash orqali sof estetik baholangan 24 ta maqolga nisbatan qarshilantirish ifodalangan, o'zbek tilida esa 23 ta maqoldan 14 tasidagina estetik bahoni uchratish mumkin. Odamning tashqi tavsiflari va ichki xususiyatlaridan (harakatlar usuli, xatti-harakatlar tabiati, atrofdagilarga nisbatan munosabat, xarakter sifati) vizual xulq-atvorni baholashga o'tiladi va estetik baholash nafaqat salbiy go'zallikni yoritishga, balki xulq-atvor, xatti-harakat,

fazilat, holatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlashga qaratilgan barqaror maqollar shaklida mujassamlashadi.

Dissertatsiyaning **“Olamning rus va o'zbek maqollariga xos lisoniy manzarasida odamning estetik bahosi lingvomadaniy fenomen sifatida”** nomli uchinchi bobi chog'ishtirilayotgan tillarda olamning maqolga doir lisoniy manzarasida odamni estetik baholashni aks ettirishning lingvomadaniy jihatini tadqiq qilishga, rus va o'zbek maqollarida odamni estetik baholashni aks ettiruvchi lingvomadaniy konsept va andozalarni namoyon etish va tahlil qilishga bag'ishlangan.

Olamning maqolga doir manzarasi dunyoqarash va dunyoni anglashning ham umumbashariy, ham sof milliy xususiyatlarini aks ettirishni inobatga olgan holda milliy-madaniy qadriyatlar, andoza, namunalarni tilda qayd qiladi. Shu bilan birga, olamning maqolga doir manzarasi milliy tajriba va dunyoqarashni saqlash va yetkazish vositasi sifatida olamning milliy lisoniy manzarasi kognitiv asosini tashkil etuvchi lingvomadaniy konseptlar bilan bog'liq o'zaro aloqadorlikni namoyon qiladi. Olamning maqolga doir manzarasida odamni estetik baholashni anglash o'zaro aloqadorlikka qaratilgan jarayonlarning kechishida sodir bo'ladi: tushunchalarning kognitiv asosini ifodalovchi madaniy konseptlar majmui sifatidagi konsept sohalari; ma'lum bir lingvomadaniyatda belgilangan inson va uning faoliyati kabilar borasidagi an'anaviy tasavvurlar sifatidagi andozalar; ma'lum bir lingvomadaniy til egalarining ongida mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimi; ma'lum lingvomadaniy maqollarni qamrab oluvchi tilning maqolga doir asosida yuzaga keladi. Estetik baholash ko'lami har doim yagona konseptual makon doirasida u yoki bu milliy-madaniy umumiylikning qadriyatlar iyerarxiyasini aks ettiruvchi daraja ko'rsatkichi bilan o'zaro bog'liqdir.

“Go'zallik” konseptida quyidagi mikromaydonlar taqdim qilinadi:

1. Tashqi go'zallik (estetik baholash), u go'zallik/xunuklik (shu jumladan, fiziologik kamchiliklar) nuqtai nazaridan odamning vizual tavsiflarini o'zida aks ettiradi.

2. Ichki (ma'naviy) go'zallik, unda ichki fazilatlarining tashqi ko'rinishga (axloqiy-estetik) tasviri tushirilishi ro'y beradi.

3. Odamning amalga oshiradigan xatti-harakatlari nuqtai nazaridan (etik-estetik) tashqi go'zalligi.

4. Faoliyat usuli / xarakteri (mahorat, qobiliyat) (pragmatik-estetik) bilan taqqoslashda namoyon bo'luvchi tashqi go'zallik.

5. Intellektual qobiliyatlarning (aqlning) namoyon bo'lishi nuqtai nazaridan yuzaga keladigan tashqi go'zallik xatti-harakatlar go'zalligi nuqtai nazaridan odamning ichki fazilatlarini aks ettiruvchi aql-go'zallik qarama-qarshiligi, shaxs intellektual fazilatlarining ahamiyati va ularning xatti-harakatlarga ta'sirining maqollarda takrorlanishi darajasi bilan bog'liqdir. Shu munosabat bilan biz intellektual-estetik baholash borasida fikrlashga jazm qildik.

Olamning rus va o'zbek maqollariga xos manzarasida **“Tashqi go'zallik” mikromaydoni tahlili** shuni ko'rsatdiki, ikkala tilda ham milliy qadriyatlarining semantik maydonida tashqi ko'rinish quyidagi tematik guruhlarga bo'linadi: 1. Go'zallikka egalik. 2. Yurak va qalb bilan orzu qilingan jozibador kuch, yaxshi

holat. 3. Sof va nuqsonsiz. 4. Misli ko‘rilmagan, ajoyib. Odamning estetik bahosi reprezentatsiyasi maqsadida xarakterli obraz va milliy andozalardan foydalaniladi. Qadriyat sifatidagi go‘zallikka ega bo‘lish uchun asos sanalgan odamning estetik bahosi reprezentatsiyasi uchun “Go‘zallikka egalik” tematik guruhida biz tomondan boshqalar oldidagi jismoniy ustunlik belgilandi: rus tilida: *Лицом красиво дерево, а одеждою – тело*; o‘zbek tilida: *Bozorning ko‘rki – baqqol, yigitning ko‘rki – soqol. – Украшение базара – бакалейщик, украшение джигита – борода*. “Yurak va qalb bilan orzu qilingan jozibador kuch, yaxshi holat” tematik guruhida quyidagilar estetik baholash reprezentatsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi: odamning atrof-muhitni estetik jarayon sifatida o‘z atrofida go‘zallikni ko‘rishga bo‘lgan ehtiyoji / istagi: rus tilida: *Дом красится хозяином*; o‘zbek tilida: *Soch ham bir husn. – И волосы придают красоте*; красота как знак, символ хорошего: rus tilida: *Что к лицу, то и красит*; o‘zbek tilida: *Yaxshiga har rang yarashur. – Хорошему любой цвет подходит*; tashqi go‘zallik boshqa fazilatlariga nisbatan jozibali kuch sifatida: rus tilida: *Красив как чернослив*; o‘zbek tilida: *Har gulning isi boshqa. – У каждого цветка свой аромат*. “Sof va nuqsonsiz” tematik guruhida go‘zallik nuqtai nazaridan mukammal (ideal) / nomukammal (noideal) tushunchalari ajratilgan: rus tilida: *Аленький цветок бросается в глаза. Красавица в румянах не нуждается*; o‘zbek tilida: *Erkak kishi qirqqa kirs qirchilaydi. – Сороколетний возраст как период расцвета для мужчины*. “Misli ko‘rilmagan, ajoyib” tematik guruhida estetik baholash reprezentatsiyasi uchun asos bo‘lib quyidagilar xizmat qiladi: qandaydir alohida xususiyat, tavsifga binoan benazirlik: rus tilida: *Красота – товар не лежалый*; o‘zbek tilida: *Afting qiyshiq bo‘lsa, oynadan o‘pkalata. – Не обижайся на зеркало, если твоя физиономия крива*; ajablanishni yuzaga keltiruvchi belgi, o‘ziga e‘tiborni qaratuvchi taajjublik: rus tilida: *Мужик чуть краше черта – уже красавец*; o‘zbek tilida: *Sumbul taqimda, yigit ko‘zi unda. – Когда девица наряжена, юноша не может свести глаз с нее*.

